

TURK TILIDAGI GEORTONIMLAR BILAN BOG'LIQ AYRIM LINGVOKULTUREMALAR XUSUSIDA

Uluqov Nosirjon Muxammadaliyevich,

Namangan davlat universiteti, "O'zbek tili va adabiyoti"
kafedrası professori, filologiya fanlari doktori

О НЕКОТОРЫХ ЛИНГВОКУЛЬТУРАХ, СВЯЗАННЫХ С ГЕОРТОНИМАМИ В ТУРЕЦКОМ ЯЗЫКЕ

Улуков Насирджон Мухаммадалиевич,

Наманганский государственный университет, Профессор
кафедры "Узбекский язык и литература", доктор филологических
наук

ON SOME LINGUOCULTURES RELATED TO GEORTONYMS IN TURKISH

Ulukov Nasirjon Mukhammadalievich,

Namangan State University, Professor of the Department of Uzbek
Language and Literature, Doctor of Philology



onomastika66@mail.ru

<https://orcid.org/0009-0001-2609-3431>

Annotatsiya. Maqolada turk tilidagi bayramlar motivatsiyasi bilan bog'liq tasviriy ismlar va maqollarning leksik-semantik, nominatsion-motivatsion, tarixiy-etimologik, uslubiy xususiyatlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: ism, motiv, motivatsiya, leksik-semantik, tasviriy ism, bayram, antroponimiya, geortoantroponim, antroponimik indikator, parema, maqol.

Аннотация. В статье освещены лексико-семантические, номинативно-мотивационные, историко-этимологические особенности описательных имен, связанных с мотивацией праздников в узбекском и турецком языках.

Ключевые слова: имя, мотив, мотивация, лексико-семантическое, образное имя, праздник, антропонимия, геортоантропоним, антропонимический индикатор.

Abstract. The article discusses the lexical-semantic, nominative-motivational, historical-etymological, and stylistic features of figurative names and proverbs related to the motivation of holidays in the Turkish language.

Keywords: name, motive, motivation, lexical-semantic, figurative name, holiday, anthroponymy, geortoanthroponym, anthroponymic indicator, parema, proverb.

KIRISH

Dunyo xalqlarining barchasida nominatsion-motivatsion jihatdan **tasviriy ismlar** guruhi alohida o'rin tutadi [1.: 128.]. Bunday ismlar bolaning tug'ilishini muayyan davr, vaqt va narsa-hodisotlarga bog'lash va shu asosida, ya'ni tasvirlash motivatsiyasi asosida yuzaga keladi. Tasviriy ismlarda bolaning tug'ilishini ilohiy kuchlar irodasi, tuhfası, sovg'asi, in'omi sifatida talqin etish, ba'zi

hollarda boshqa narsa va hodisalar hamda obyektlarning muruvvati deb tasavvur etish, bola tug'ilgan vaqt: hafta kunlari, sutkaning muayyan qismi, oy, yil (muchal nomlari), fasllar, ma'lum bayram, shodiyona yoki tadbir o'tkazilayotgan paytda dunyoga kelganligi ifodasi mahsulidir. Boshqacha aytganda, ismda ana shu jihatlardan biri bilan bog'liq tarzda yuzaga keladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Turkiy tillar, jumladan, turk tili antroponimiyasida bayramlar motivatsiyasi asosida yuzaga kelgan tasviriy ismlar juda ko‘p: *Bayram, Bayramsoat, Bayrambibi, Bayramgul, Bayrammurod, Bayramqul; Hayitboy, Hayitbu, Hayitkeldi, Hayitniyoz; Iydi, Iydigul; Navro‘z, Navro‘zbek, Navro‘zbeki, Navro‘zberdi, Navro‘zqul, Navro‘zoy* kabi [2.:608.]. Bu turkumdagi ismlarga bayram nomlari – geortonimlar lug‘aviy asos bo‘lgan. Shu boisdan ular **geortoantroponimlar** deb ataladi. Masalan, turk lingvomadaniyatida 29-oktyabr – *Respublika bayrami*, ya‘ni *Jumhuriyet Bayrami* bilan bog‘liq *Jumhur (Cümhur), Jumhure, Jumur, Jumhura, Jumhurhan, Jemhur, Jumhurjan, Jemhor, Jumhuray, Jumfur, Jumhure* kabi antroponimlar kuzatiladi [5.]. Bu ismlar asosan 1923-yildan keyin siyosiy voqealar bois keng tarqalgan. Turkiyaning sharqiy viloyatlarida kam, Istanbul, Izmir viloyatlarida ko‘proq uchraydi.

MUHOKAMA

Turk tili antroponimiyasiga mansub diniy hamda milliy bayramlar motivatsiyasiga asoslangan tasviriy ismlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Ashuro kuni geortonimi bilan bog‘liq ismlar. Muharram oyining ashuro, ya‘ni o‘ninchida barcha dinlar tarixida muhim voqealar bo‘lib o‘tgan *Ashuro kunida* tug‘ilgan bolalarga o‘zbeklarda *Ashurmuhammad, Ashurnazar, Ashurniyoz, Ashurpo‘lat, Ashurtosh, Ashurhol, Ashurqul* kabi ismlar beriladi [3.: 39-40.].

Ashura antroponimi turk lingvomadaniyatida *Ashure, Ashura, Ashuriye, Asure, Ashuri* kabi fonetik variantlarda Divrig‘i, Arapkir, Malatya hududidagi Alaviylar orasida keng tarqalgan. Ismning *Ashire* varianti Aksarayda, *Ashure / Ashura* variantlari Nig‘de (Chiftlik tumanida), *Ashiret* varianti esa Nevshehir-Derinkuyu hududida ko‘p uchraydi [5.].

2. Barot kuni geortonimi bilan bog‘liq ismlar. Turk xalqida barot kechasi // barot kuni (sha‘bon oyining o‘n beshinchi kuni) tug‘ilgan bolaga *Barot* ismini qo‘yish an‘anaga aylangan [2.: 47.].

Turk lingvomadaniyatida barot kuni bilan bog‘liq *Berat, Berati, Berrat, Barat, Beratxan, Beratnur* kabi ayollar ismlari; *Berat, Berati, Barat, Beratjan, Beratkan, Beratmert, Beratullah* singari erkaklar ismlari kuzatiladi. Bu turkum ismlarga xos

variantdorlik turk tilining fonetik o‘ziga xos xususiyatlari mahsuli sifatida yuzaga kelgan.

3. Rajab oyi geortonimi bilan bog‘liq ismlar. Hijriy yil hisobining yettinchi oyida oyi – rajab oyida tug‘ilgan bolaga *Rajab* ismini beradilar. Bu antroponim turk tilida *Rejab, Rajab* variantlarida uchraydi. O‘zbek tili antroponimiyasida turk tiliga qaraganda rajab oyi bilan bog‘liq ismlar sirasi ko‘proq.

4. Mavlid geortonimi bilan bog‘liq ismlar. *Mavlid* so‘zi tarixiy-etimologik manbasiga ko‘ra arabcha bo‘lib, “dunyoga keltirdi” ma‘nosini anglatuvchi valada fe‘lidan yasalgan ot bo‘lib, arab tilida “tug‘ilgan joy”, “vatan”, “payg‘ambarning tug‘ilgan vaqti” kabi ma‘nolarini anglatadi. o‘zbek tilida bu “Muhammad payg‘ambarning tug‘ilgan kuni bilan bog‘liq bayram” ma‘nosida, ya‘ni geortonim sifatida qo‘llanadi.

Muqaddas kunda, ya‘ni Muhammad (s.a.v) tug‘ilgan rabiulavval oyining 12-kuni dunyoga kelgan bolalarga *Mavlud* ismi beriladi. Turk tilida *Mavlud* geortonimi bilan bog‘liq *Mavluda (Melvude), Mavludagul (Mevlüdegül)* kabi qizlar, *Mavlud* o‘g‘il bolalar ismlari bor [5.]. *Mavlud* antroponimi turk tilida *Mevlut, Mevlud, Mevlutcan, Mavlut, Mevrut, Mo‘vlut* variantlarida uchraydi. Ism erklash shaklida *Mavludaxon (Mevlüdehan)* variantida ham qo‘llanadi.

5. Hayit geortonimlari bilan bog‘liq ismlar. O‘zbek tili kabi turk tilid ham diniy hayit bayramlari bilan bog‘liq antroponimlar turkumi ham yuzaga kelgan. Turk tilida Ramazon ismining *Ramazan, Ramadan, Remezan, Remeden, Ramazane, Razaman, Iramazan, Ramazzan, Ranazan* variantlari faol kuzatiladi, *Kurban, Gurban, Kurbanbay, Kurbangul, Kurbankiz, Kurbanay, Kurbanjan, Kurbanazar, Gurbani, Kurbanbibi, Kurbangazi, Kurbanxon, Kurbanije* kabi ismlar Kars, Ig‘dir, Childir, Erzurum viloyatlarida ko‘p uchraydi.

6. Navro‘z geortonimi bilan bog‘liq ismlar. Xalqimizda an‘anaga aylangan ezgu udumlardan biri Navro‘z bayrami kunlarida tug‘ilgan bolalarga bayram bilan bog‘liq ism qo‘yish odatdir. Haydar Xorazmiyning “Gul va Navro‘z” dostonida Farrux shohning o‘g‘liga bayram kuni tug‘ilgani bois *Navro‘z* ismi qo‘yilgan. Hozir ham O‘zbekistonda, ko‘proq, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro viloyatlarida chaqaloq Navro‘z kuni tug‘ilsa, *Navro‘z* ismi qo‘yiladi.

Qardosh turk xalqida ham bu bayram bilan bog'liq *Nevruz, Navruz, Nevroz, Nevruze, Nevriza, Nevriz, Nevize, Nevraz, Nevruziye, Navruziya, Navruze, Nehruz, Nevruzan, Neperuze, Nehroz, Nevroch, Niruz, Novruz* kabi o'nlab antroponimlar kuzatiladi [5].

Shuningdek, turk tili antroponimiyasida umuman bayramlarga nisbat berish asosida hosil qilingan *Bayram, Bayramiya, Bayramxan, Bayramjan, Bayrame, Bayrama, Bayramxatun, Bayrami, Beyrem, Bayramayshe, Bayrampasha, Bayramgul* kabi ismlari mavjud.

Turk lingvomadaniyatida bayramlar bilan bog'liq bir qancha maqol (atasözler) faol qo'llanadi. Juda ko'p turk maqolari bayramlarning fazilati, ezgu jihatlari haqida. "*Bayram birlikdir*" ("*Bayram birliktir*"), "*Bayram do'stlik va mehrni mustahkamlaydi*" ("*Bayram, dostluğu ve sevgiyi pekiştirir*"), "*Bayram quvonch ulashilgan sari ortadi*" ("*Bayram sevinci, paylaşıldıkça artar*"), "*Bayram qalblar yumshaydigan kundir*" ("*Bayram, gönüllerin yumuşadığı gündür*") kabi maqollarda bayram insonlarni birlashtiruvchi, o'zaro do'stlik va mehrni mustahkamlovchi, quvonch, ezgulik in'om etuvchi vosita ekanligi tavsiflanadi. Shu boisdan ayrim maqollarda bayram kunlari arazlashib bo'lmasligi aytiladi: "*Bayramda arazlashish bo'lmaydi*" ("*Bayramda küslük olmaz*").

Qardosh turk xalqi nazdida "*El bilan kelgan to'y bayramdir*" ("*El ile gelen düğün bayramdır*") [6.], ya'ni har qanday bayram el, xalq, odamlar bilan to'kis, tantanalarning bayramligi ham shu bilan belgilanadi. Elsiz, odamlarsiz bayram o'tmaydi.

Ba'zi kishilar kelajakdagi baxtli kunlarning tezroq kelishini xohlaydilar. Holbuki, bilmaydilarki, har o'tgan kun umrlaridan ketadi. Turk xalqi nazdida aqlsiz, noqis kishilarda g'am, tashvish bo'lmaganligi bois ular uchun oddiy kunlar ham bayram, ularni umrning o'tgani bilan ishi yo'q, bayram qilsa, bo'ldi, degan kinoyaviy mazmun "*Telbaga har kun bayram*" ("*Deliye göre her gün bayram*"), "*Kun o'tadi, umr o'tkinchi, telba esa bayram bo'layotganiga xursand*" ("*Gün geçer ömür tükenir, deli sevinirki bayram geliyor*") kabi turk va "*Hayosizga – har kun hayit*" degan o'zbek maqollarda ifodalangan.

Boshqa bir maqolda inson uchun sog'lik-salomatlikning muhimligi ham bayram misolida uqtiriladi, ya'ni sog'lom odamning har kuni bayram, to'y, chunki insonning sog'ligi hamma narsadan

muhim, umrning sog'-salomatlik bilan o'tishi ham eng katta bayram demak: "*Sog' odamga har kun bayram, har kuni to'y*" ("*Sağ olana her gün düğün bayram*").

Turk xalqi maqollarida uqtirilishicha, e'tiqodlarga ko'ra, ikki bayram orasida nikoh qurish omadsizlik olib keladi: "*Ikki bayram orasida uyulanilmaydi*" ("*İki bayram arasında evlenilmez*").

Har qanday bayram dasturxon, ya'ni taomlar, noz-u ne'matlar, shirinliklar bilan fayzli o'tadi. Milliy taom va shirinliklar bayramlarga zeb, ko'rk baxsh etadi. Shu jihat "*Osh pishdi, bayram o'tdi*" ("*Aş pişti bayram geçti*") degan turk maqolida ixcham ifodalangan. Maqolda osh so'zi keng, umuman *taomlar, shirinliklar* ma'nosida qo'llangan. Demak, tantanalalar boshlanib, bayram taomlari pishirilib, mehmonlarga tarqatilsa, tortilsa, ulashilsa, bayram o'tadi.

Turk xalqi ham diniy bayramlarni o'zgacha e'tiqod, mehr, e'tibor bilan nishonlaydi. Ular Ramazon oyini *baraka oyi, sabr oyi*, umuman bayramlarni ne'mat sifatida e'zozlaydilar. Bu ularning "*Ramazon baraka, bayram ne'matdir*" ("*Ramazan bereket, bayram nimet*", "*Ramazon sabrdir*" ("*Ramazan, sabırdır*") kabi maqollarida yorqin ifodalangan.

"*Qurbanlik bu bo'lishishdir*" ("*Kurban, paylaşmaktır*") maqolida esa Qurbon hayiti qurbanlik go'shtlarini beva-bechoralar, muhtojlarga tarqatish, ehson qilish, xursandchilik va quvonchni baham ko'rish, bo'lishish, ulashish oyi ekanligi lo'nda va aniq uqtiriladi.

Ayrim o'zbek va turk maqollarining shakliyl tuzilishi turlicha bo'lsa-da, bir umumiy mazmunni ifodalaydi. Masalan, o'zbek tilidagi "*Hayitdan keyin xinani ketingga qo'y*" maqoli turk lingvomadaniyatida "*Bayram o'tib bo'lgach, xinani boshinga qo'y*" ("*Bayram geçtikten sonra kınayı başına çal*") variantida mazmunan yumshoqroq tarzda ifodalanadi.

Turk xalqida mehmondo'stlik – oliy fazilat. Ayniqsa, bu bayramlarni nishonlashda yorqin kuzatiladi. Bayram kunlarida keksalar, bolalar, qarindosh-urug'lar, mehmonlar e'zozlanadi, bayram taomlari bilan siylanadi, mehmon qilinadi. Bu jihat "*Bayramda mehmon xafa bo'lmaydi*" ("*Bayramda misafir eksik olmaz*") maqolida ta'kidlanadi.

Turk xalq maqollarida kishilar mehmondo'st, shirinso'z bo'lishga chorlanadi. Zero, shirinso'z ham bayram shirinligi kabi insoniylik bezagidir:

“Shirinso‘z bayram shirinligi kabi” “Tatli dil bayram şekeri gibidir”)

XULOSA

Dalillardan ko‘rinadiki, geortonimlar bilan bog‘liq antroponimlar, paremalar diniy, milliy, etnografik, madaniy o‘ziga xoslik, an‘analar, urf-odatlarining ifodasi, mahsuli bo‘lib, boshqa xalqlar kabi turk xalqining ijtimoiy-siyosiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy hayotida bayramlarning o‘rni va mohiyatini yorqin ko‘rsatuvchi lisoniy birliklardir. Bayramlar bilan bog‘liq tasviriy ismlar, maqollar sirasi til taraqqiyoti davomida ma‘no va shakily jihatdan sayqallanib, takomillashib borgan [4.: 453-455.].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

RO‘YXATI:

1. Кенжаева С. Ўзбек тили антропонимларининг номинацион-мотивацион асослари ва тавсифи: Филол. фан. фалсафа доктори диссер. – Қарши, 2019.

2. Бегматов Э.А. Ўзбек исмлари изоҳи. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2016.

3. Бегматов Э. Ўзбек исмлари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.

4. Uluqov N., Solixo‘jayeva H. O‘zbek tilidagi bayramlar bilan bog‘liq tasviriy ismlar xususida // International scientific and practical conference “Innovative approaches in study of the language, literature, translation, tourism and cultural heritage on the silk road”, may 3-4, 2024.

5. Nişanyan Adlar. <https://www.nisanyanadlar.com>

6. Barcha turk maqollari quyidagi manbadan olindi va turkchasi aynan berildi: Metin Yurtbaşı. Sınıflandırılmış Türk Atasözleri // <https://archive.org/details/metin-yurtbasi-siniflandirilmis-turk-atasozleri>.

